Ta’lim sohasida Nurota tajribasiga asos yaratildi

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yilning 29-dekabr kuni o’zining Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Biz o’z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug’ maqsadni qo’ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug’beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog’lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g’oyamizning asosiy ustunlari bo’lib xizmat qilishi lozim” – deb ta’kiladilar.

Ushbu vazifalar ijrosini ta’minlash ta’lim-tarbiya jarayoni oqsayotgan maktablar reytingini ko’tarish va bitiruvchilarning oliy ta’limga kirish ko’rsatkichlarini yaxshilash maqsadida joriy yil 10-12-fevral kunlari Fanlar akademiyasi Navoiy bo’limi olimlari va Navoiy davlat pedagogika instituti professor-o’qituvchilari hamkorlikda tayyorlagan “Innovatsion pedagogikadan moderatorlarni tayyorlash” dasturi asosida Navoiy viloyatining Nurota tumani o’rta umumta’lim maktablarining 24 nafar o’qituvchi-metodistlari bilan seminar-trening mashg’ulotlari o’tkazildi.

Dasturning maqsadi - maktab o’qituvchilarining o’quvchi-yoshlarga ta’lim va tarbiya berishda innovatsion mexanizmlari to’g’risidagi bilimlarini rivojlantirish bo’lib, bunda asosiy e’tibor ta’lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib shaxsga yo’naltirilgan innovatsion ta’lim muhitini tashkil etish ko’nikmalarini o’qituvchilarda shakllantirishdan iborat bo’ldi.

Seminar-trening mashg’ulotlari ishtirokchilarda neyropedagogikaning ilmiy-nazariy asoslari, ta’lim-tarbiya jarayonining neyropsixologik va neyrofiziologik jihatlarini hisobga olgan holda darsni tashkil etish yo’llari va vositalari to’g’risida qisqacha nazariy ma’lumotlar berib, asosiy urg’uni olingan bilimlarni amaliyotga joriy

etish ko’nikmalarini shakllantirishga yo’naltirildi. Xususan, trening ishtirokchilariga pedagogik mahorat va neyropedagogika to’g’risida umumiy ma’lumotlar berish bilan birga shaxsga va individga yo’naltirilgan ta’limni tashkil etish yo’llari va vositalarini amaliyotda qo’llash, ta’lim oluvchi shaxsini neyropedagogik tashxis qilish metodlari, innovatsion o’qitish texnologiyalari – sintezlangan va polimodal ta’lim texnologiyalarini amaliyotda qo’llash ko’nikmalarini shakllantirish masalalariga alohida urg’u berildi.

Dastur asosida o’tkazilgan mashg’ulotlar natijasi bo’yicha barcha ishtirokchilar 2021-yil 16-fevralda pedagogika sohasidagi tajribali olim va professor-o’qituvchilar bilan davra suhbatida ishtirok etdilar.

Mazkur yo’nalishda ishlar davom ettiriladi. Ijobiy natijalarga erishilgan holda ta’lim sohasida Nurota tajribasi Navoiy viloyati boshqa tuman va shaharlarining maktablarida joriy etiladi.